

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## EFL(INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH) O‘QITUVCHILARI TOMONIDAN FOYDALANILADIGAN ENG YAXSHI O‘QITISH TEXNIKASI VA METODLARI

**Ulbosin Aripova,**

*TATU Olmaliq filiali “O‘zbek tili  
va adabiyoti” kafedrasida assistenti  
Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti 1-kurs doktoranti*

**Dilshoda Sattorova,**

*TDTU Olmaliq filiali 12- XT  
talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilining hozirgi Yangi O‘zbekistonda rivoj topib borayotgani va ingliz tilini o‘rganishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rgatishda foydalanilyotgan eng samarali metodlar va ularning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** an’anviy o‘qitish metodi, TPR metodi, Dayrekt metodi, CLT metodi, Audio lingual metodi, PPP metodi.

**Abstract.** This article talks about the development of the English language in the current New Uzbekistan and the importance of learning English. In particular, the most effective methods used in teaching English and their importance have been mentioned.

**Key words:** traditional method, TPR method, Direct method, CLT method, Audio lingual method, PPP method.

Ingliz tili fan sifatida qariyb bir necha yildirki O‘zbekiston o‘quvchi yoshlari va talabalariga o‘qitib kelinmoqda. Sir emaski, ingliz tili nafaqat jahon bo‘ylab muloqot tili, balki fan va texnologiya tili sifatida ham e’tirof etilgan. Shu bois, ingliz tilini nafaqat shu sohadagi filologlar, balki boshqa soha vakillari ham katta qiziqish bilan o‘rganishga kirishgan. Hurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida “ 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori imzolanishi doirasida hozirgacha juda ko‘plab ishlar olib borilgani fikrimiz misolidir.

Chet tilini o‘rgatish o‘qituvchidan juda katta ma’suliyat va ijodkorlikni talab qiladi. Ayniqsa, hozirgi texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan paytda bu talab yanada ortgan. Chet tili o‘qituvchilarining ko‘pchiligi an’anaviy o‘qitish metodidan foydalanib kelmoqda, aslida bu metod o‘z ahamiyatini anchagina yo‘qotgan deb hisoblayman. Sababi, bu metod orqali o‘quvchi yoki talaba faqat eshitish va yodda saqlash taktikasi bilan ishlidi. Mening fikrimcha, hozirgi o‘quvchi yoshlar bundan 15-20 yil oldingi o‘quvchilardan fikrlashi va dunyoqarashi jihatidan anchagina farq qiladi. Bu metod esa ularni fanga nisbatan qiziqishini susaytirishi va zerikish hissini

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar dars davomida faqatgina bir metoddan foydalanmasdan ,ta‘lim berishga ijodiy yondoshishi, har darsda turli metodlardan, interaktiv texnologiyalardan foydalanishi zamon talabi bo‘lib bormoqda.

Ingliz tilini o‘rgatishda juda ko‘plab metod va texnikalar ishlab chiqilgan, ularni ishlatishda albatta talaba yoki o‘quvchi yoshlarning yoshi, til bilish darajasi, qiziqishlari ham inobatga olinishi darkor. Jumladan, TPR metodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoki ingliz tilini endigina o‘rganishni boshlaganlar uchun juda ham mos. Bu metodni ham onlayn ham oflayn o‘rganuvchilarga , hamda katta va kichik guruhli sinflarga ham qo‘llash mumkin. TPR metodida o‘qituvchi tilni o‘rgatishda turli imo-ishoralar, harakatlardan foydalanadi. Bu o‘z navbatida hattoki passiv o‘quvchini ham darsda faol qatnashishga undaydi. Keyingisi Dayrekt metod bo‘lib bu asosan yuqori sinf o‘quvchilari yoki talaba yoshlarga qo‘llash mumkin bo‘lgan metoddir. Sababi bu metod faqat ingliz tilida gapirish va tinglashga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchi faqat ingliz tilida gapiradi va darsda inglizcha atmosfera yaratadi. Bu metodning afzallik jihati shundaki, ingliz tilini o‘rganuvchilar tilni tarjima qilmasdan, balki ana shu tilning o‘zida fikrlaydi va muloqot qiladi. Audio lingual metod ham Dayrekt metodga o‘xshab ketadi, lekin bunda tinglash va takrorlash darsning asosiy qismi hisoblanadi. Bu metod ham ingliz tilini endi boshlagan o‘rganuvchilar uchun bo‘lib, o‘rganuvchilarning talaffuzi o‘z vaqtida to‘g‘irlanadi. Ingliz tilini o‘qitishda foydalaniladigan yana bir samarali metod bu CLT ya’ni Kommunikativ muloqotni o‘rgatish metodidir va asosan ingliz tilini o‘rta va yuqori darajada biluvchilar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu metodning afzalligi shundaki, dars davomida markazda o‘qituvchi emas asosan talaba yoki o‘quvchi bo‘ladi. Bu metodda o‘rganuvchilarni gapirishga majbur qiladigan juda ko‘plab mashq va vazifalardan foydalaniladi. Natijada o‘rganuvchilarda o‘rgangan chet tilini amalda qo‘llay olish imkoniyati paydo bo‘ladi va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. TB metodi ya’ni vazifaga asoslangan metod ham CLT metodga o‘xshab ketadi, farqi shundaki bu metodni har qanday yoshdagi va darajadagi o‘rganuvchilarga qo‘llash mumkin. Bu metodda o‘rganuvchilar guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Va nihoyat so‘nggisi PPP metodi hisoblanadi, bu metoddan hozirda dunyo bo‘ylab ko‘plab o‘qituvchilar foydalanishmoqda. Bu metodni boshqa metodlarga nisbatan mukammalroq desak mubolog‘a bo‘lmiydi. Sababi bu metodda o‘qituvchi o‘zining bir darsdagi til o‘rgatish maqsadiga bosqichma- bosqich erishadi. Ya’ni dars boshida o‘qituvchi grammatika yoki lug‘atni tushuntiradi, dars o‘rtasida o‘qituvchi o‘quvchilarning qay darajada tushunganini turli mashq va vazifalar berib tekshiradi. Darsning so‘nggi

# "O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

bosqichida esa o'quvchilar mustaqil ravishda o'rgangan narsalarini amalda qo'llovchi vaziyat yaratib uni darsda ko'rsatib berishadi.

Guvohi bo'lganingizdek, ingliz tilini o'rgatuvchi metod va texnikalar hilma-hil, men bor yo'g'i bir nechtasinigina sanab chiqdim. Sababi, men sanab chiqqan metodlarni hammasini o'zimning 10 yillik o'qitish tajribamda qo'llaganman va ularning hammasi samarali natijani bergan. Samarali natijani olish uchun albatta qaysi paytda qaysi metoddan foydalanishni bilish, metod tanlashda o'rganuvchilarning yoshi, bilish darajasi va qiziqishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ellis, R. 1988. Classroom second language development. New York: Prentice Hall
2. Juanna Kosta, &Melanie Williams. (2021). PREPARE student's book (p 14-15)
3. Jones. (2012). Assessing student's grammatical ability.
4. Kiddle. (2013). Developing digital language learning materials.
5. Machnish & Tomos. (2018). DM for Teaching Speaking.
6. Mishra & Koehler. (2016). TPCCK Framework
7. McGrath. (2016). Exercise and Worksheet. Ch 4
8. McGrath. (2016). selection and adaptation. Ch 5
9. Macalister, J. (2016). Adapting and adopting materials. In M. Azarnoosh, M. Zeraatpishe, A. Faravani& H. R. Kargozari (Eds.), Issues in materials development (pp. 57–64). Brill.
10. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
11. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA'SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
12. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
13. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
14. Kalandarova D. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany". *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
15. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

16. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
17. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.